

## **TA'LIM TEXNOLOGIYASI VA UNING TURLARI.**



*Abdullayeva Rayxon Atanazarovna*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*"Maktabgacha ta'lif va tabiiy fanlar"*

*kafedrasи dotsent v.b.*

**ANNOTATSIYA.** Mazkur maqolada zamonaviy ta'lif tizimida qo'llanilayotgan ta'lif texnologiyalarining mohiyati, ularning turlari va pedagogik jarayonda tutgan o'rni tahlil qilingan. Ta'lif texnologiyalari o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, interfaol, axborot-kommunikatsion, masofaviy va muammoli ta'lif texnologiyalarining afzalliklariga alohida e'tibor qaratilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** *Ta'lif texnologiyalari, interfaol metodlar, AKT, muammoli ta'lif, pedagogik jarayon, zamonaviy o'qitish.*

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lif tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. An'anaviy o'qitish shakllari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, ta'lif jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lif sifatini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish va raqamli texnologiyalar asosida pedagogik yondashuvlarni kengaytirish bo'yicha muhim ishlar olib borilmoqda. Ushbu sharoitda ta'lif texnologiyalarining roli beqiyos bo'lib, ular o'qitish jarayonini samarali, tizimli va natijaga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Ta'lif texnologiyalari – bu o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning maqsadli tizimidir. Bu tizim o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. UNESCO tomonidan ta'lif texnologiyasi "ta'lif jarayonini tashkil etish va boshqarishga doir tizimli yondashuv" sifatida tariflangan.

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Pedagogik adabiyotlarda ta'lim texnologiyalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini optimallashtiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Ular rejalashtirilgan maqsadlarga erishish, darslarni loyihalash, monitoring va tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogikada quyidagi asosiy ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi:

a) An'anaviy ta'lim texnologiyasi:

Bu usul o'qituvchining asosiy rolini ta'minlaydi, bilimlar asosan og'zaki tarzda yetkaziladi. Kam interaktivlik va cheklangan o'zaro aloqaga ega.

b) Interfaol ta'lim texnologiyasi:

O'quvchilar faol ishtirok etadigan, fikrlash va muhokamaga asoslangan metodlarni o'z ichiga oladi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat" kabi usullar samaradorlikni oshiradi.

c) Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT):

Kompyuter, multimedia, internet tarmoqlari orqali ta'lim berishdir. Onlayn kurslar, elektron darsliklar, masofaviy o'qitish – bularning barchasi AKT imkoniyatidir.

d) Muammoli ta'lim texnologiyasi:

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Darsda muammo qo'yiladi va uni o'quvchi o'zi izlanish orqali hal qiladi.

e) Masofaviy ta'lim texnologiyasi:

Ta'lim oluvchi va beruvchining bir joyda bo'lmasdan turib o'qitish jarayonini tashkil etishidir. Ayniqsa pandemiya davrida keng qo'llanildi.

Ta'lim texnologiyalarining afzalliklari shundaki unda o'quvchilarning faolligi, bilimni mustahkamlanishi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga yo'l ochiladi va zamonaviy kasbiy malakalarini shakllantiradi.

Mamlakatimizda 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyasi doirasida innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Prezident qarorlari asosida pedagoglar malakasini



oshirish, AKT vositalarini darslarda qo'llash, raqamli platformalarni yaratish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak ta'lim texnologiyalari – bu nafaqat texnik vositalar, balki o'quv jarayonini zamonaviylashtiruvchi yondashuvdir. Uning turlari o'quvchilarda chuqur bilim, amaliy ko'nikma va zamonaviy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar aynan ushbu texnologiyalarning keng joriy etilishi orqali samaradorlik kasb etmoqda. Har bir pedagog bu texnologiyalarni chuqur o'rganishi va amaliyotda to'g'ri qo'llashi muhim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. A.A.Azizzxo'jayev Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi. (2010).
2. B.Toshxo'jayev Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm ziyo nuri. (2021).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori, 2020-yil.
4. Shodmonqulova D. "Oliy ta'limda masofaviy texnologiyalarni joriy etishning dolzarb masalalari". Ilmiy-texnik jurnal, №3. (2022).

